



PHARMACOEPIDEMOLOGICAL ANALYSIS OF GOUT IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Tairova S.F.¹

Rajabova N.Kh.²

¹Samarkand State Medical University

²Tashkent Pharmaceutical Institute

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20137110>

ARTICLE INFO

Received: 03rd May 2026

Accepted: 10th May 2026

Online: 11th May 2026

KEYWORDS

Gout, medicinal products,
pharmacoepidemiology,
morbidity, population,
statistical analysis,

ABSTRACT

This article presents an analysis of the pharmacoepidemiological situation of gout in the Republic of Uzbekistan during 2016–2024. The study was conducted based on official statistical data provided by the Ministry of Health of the Republic of Uzbekistan. The findings demonstrated an increasing trend in gout incidence during 2016–2019, followed by a decline in 2020–2023 and a subsequent increase in 2024. The highest incidence rates were observed in Tashkent city, as well as in the Tashkent, Samarkand, and Surkhandarya regions. The study revealed that gout predominantly affects the adult population, whereas the disease is extremely rare among children and adolescents. The results of the study may serve as a basis for planning pharmaceutical care within the regional healthcare system.

ФАРМАКОЭПИДЕМИОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПОДАГРЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Таирова С.Ф.¹

Ражабова Н. Х.²

¹Самаркандский государственный медицинский университет, Самарканд,
Узбекистан

²Ташкентский фармацевтический институт, Ташкент, Узбекистан

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20137110>

ARTICLE INFO

Received: 03rd May 2026

Accepted: 10th May 2026

Online: 11th May 2026

KEYWORDS

Подагра,
лекарственные
средства,
фармакоэпидемиология,
заболеваемость,
население,
статистический
анализ,

ABSTRACT

В данной статье представлен анализ фармакоэпидемиологической ситуации подагры в Республике Узбекистан за 2016–2024 годы. Исследование проведено на основе официальных статистических данных Министерства здравоохранения Республики Узбекистан. Установлено, что заболеваемость подагрой имеет тенденцию к росту в 2016–2019 годах, с последующим снижением в 2020–2023 годах и повторным увеличением в 2024 году. Наиболее высокие показатели отмечены в городе Ташкенте,



Ташкентской, Самаркандской и Сурхандарьинской областях. Выявлено, что заболевание преимущественно распространено среди взрослого населения, в то время как среди детей и подростков встречается крайне редко. Результаты исследования послужат основой для планирования фармацевтической помощи в региональной системе здравоохранения.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA PODAGRA KASALLIGINING FARMAKOEPIDEMIOLOGIK TAHLILI

Tairova S.F. ¹

Rajabova N.X. ²

¹Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Samarqand, O'zbekiston

²Toshkent farmatsevtika instituti, Toshkent, O'zbekiston

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20137110>

ARTICLE INFO

Received: 03rd May 2026

Accepted: 10th May 2026

Online: 11th May 2026

KEYWORDS

Podagra, dori vositalari,
farmakoepidemiologiya,
kasallanish, statistik
tahlil.

ABSTRACT

Mazkur maqolada 2016–2024 yillar davomida O'zbekiston Respublikasida podagra kasalligining farmakoepidemiologik holati tahlil qilindi. Tadqiqot sog'liqni saqlash vazirligining rasmiy statistik ma'lumotlari asosida olib borildi. Natijalar podagra kasalligi ko'rsatkichlari 2016–2019 yillarda o'sish, 2020–2023 yillarda pasayish va 2024 yilda yana oshish tendensiyasiga ega ekanligini ko'rsatdi. Eng yuqori ko'rsatkichlar Toshkent shahri, Toshkent, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida qayd etildi. Kasallik asosan kattalar orasida keng tarqalgan bo'lib, bolalar va o'smirlar orasida kam uchraydi. Tadqiqot natijalari hududiy sog'liqni saqlash tizimida farmatsevtika yordamini rejalashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Dolzarbligi. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida aholining sog'lig'ini mustahkamlash, surunkali kasalliklarning oldini olish hamda ularni samarali davolash tizimini takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Metabolik kasalliklar, jumladan podagra kasalligi ham tibbiyot amaliyotida muhim o'rin tutadi. Mamlakatimizda aholini sog'lig'ini saqlash, kasalliklarni erta aniqlash, bemorlarni dori vositalari

bilan ta'minlanishini yaxshilash borasida bir nechta islohotlar olib borilmoqda. Bugungi kunda podagra nafaqat revmatologik, balki global darajadagi metabolik muammo sifatida qaralmoqda. Dunyo miqyosida urbanizatsiya, aholining qarishi va noto'g'ri ovqatlanish ratsioni tufayli giperurikemiya hamda podagra bilan kasallanish ko'rsatkichlari muttasil o'sib bormoqda. Xalqaro tadqiqotlarga ko'ra podagra kardiometabolik kasalliklar, jumladan,



arterial gipertenziya va surunkali buyrak yetishmovchiligi bilan chambarchas bog'liqdir. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, podagraning tarqalishi hudud va aholi guruhiga qarab keskin farq qiladi. Global miqyosda 2020-yil holatiga ko'ra, dunyoda 55,8 million kishi podagra bilan xastalangan. Kasallikning yoshga nisbatan standartlashtirilgan ko'rsatkichi 1990-yildan buyon 22,5% ga oshgan. Eng yuqori ko'rsatkichlar Okeaniya mintaqasida qayd etilgan. Aksincha, Afrika va Markaziy Amerika mamlakatlarida tarqalish darajasi nisbatan past (0,1–0,4%). Barcha tadqiqotlar podagraning erkaklarda ayollarga nisbatan 3 baravardan 10 baravargacha ko'proq uchrashini tasdiqlaydi. Kasallik yosh o'tishi bilan ko'payib boradi va 80 yoshdan oshganlar orasida tarqalish darajasi 11–13% gacha yetadi. Semizlik podagra nogironligining (YLD) 34,3% qismi uchun javobgar asosiy omildir. Giperurikemiya rivojlanishida genetik moyillik bilan bir qatorda purinlarga boy mahsulotlar, alkogol va shakarli ichimliklar iste'moli muhim rol o'ynaydi. Buyrak funksiyasining buzilishi podagra bilan chambarchas bog'liq bo'lib, holatlarning 11,8% qismini tashkil etadi. Shuningdek, gipertoniya podagra bilan og'rigan bemorlarning deyarli to'rtidan uch qismida uchraydi. So'nggi o'n yilliklarda dunyoda podagra tarqalishi barqaror o'sib bormoqda. Masalan, Buyuk Britaniyada 2000 yildan 2005 yilgacha bo'lgan davrda podagraning tarqalishi 1,4% ni tashkil etgan, 1975 yildagi 1000 bemorga 2,6 dan 2006 yilda 4,9 gacha o'sganini ko'rish mumkin. Podagra asosan o'rta yoshli erkaklarga uchraydi (40-50 yosh), ammo kasallikning eng

yuqori tarqalishi erkaklar uchun 70 yoshdan oshgan va ayollar uchun 80 yoshdan oshgan bemorlarda kuzatiladi. Tayvanda 1983 yildan 1991 yilgacha va 1992 yildan 2000 yilgacha tashxis qo'yilgan podagra bilan og'rigan bemorlar guruhlari qiyosiy tadqiqoti 10 yillik kuzatuv davomida podagraning o'rtacha yoshi 2,7 yilga statistik jihatdan sezilarli darajada kamayganligini aniqladi.

Xorijiy manbalarga ko'ra, podagraning tarqalish darajasi turli mamlakatlarda aholining turmush tarziga qarab farqlanadi. Masalan, rivojlangan mamlakatlarda ushbu ko'rsatkich kattalar orasida 1% dan 4% gacha yetishi mumkin. O'zbekiston Respublikasida farmakoepidemiologik tahlillarning yetishmasligi, dori vositalariga bo'lgan ehtiyojni prognoz qilish va profilaktika choralarini optimallashtirishda ilmiy asoslangan statistik tahlilni talab etadi. Farmakoepidemiologik tadqiqotlar (pharmacoepidemiology studies) populyatsiya yoki katta guruhlar darajasida haqiqiy klinik amaliyotda dori vositalarining samaradorligi va xavfsizligini aniqlash kabi epidemiologik usullar yordamida o'tkaziladi.

Tadqiqot maqsadi. O'zbekiston Respublikasida va uning ma'muriy hududlarida podagra kasalligining farmakoepidemiologik holatini, tarqalishi darajasini o'rganish.

Material va uslublar. Podagra kasalligi farmakoepidemiologiyasi tahlili O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi milliy statistika qo'mitasidan olingan 2016-2024 yillardagi rasmiy statistik ma'lumotlari tahliliga asosan olib borildi. Tadqiqotda tizimli yondashuv, retrospektiv va



farmakoepidemiologik tahlil usullaridan foydalanildi. Statistik ma'lumotlarni qayta ishlash Microsoft Excel 2021 dasturiy ta'minoti yordamida amalga oshirildi. Kasallanish darajasini baholashda intensiv ko'rsatkichlar (har 100 000 aholiga nisbatan) va dinamik o'sish sur'atlari hisoblab chiqildi.

Natijalar. Tadqiqotimizning ilk bosqichida podagra kasalligi bilan og'rigan bemorlarga tibbiy va farmatsevtik yordam holatini o'rganish maqsadida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan chora tadbirlar tahlil qilindi. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirining 2023-yil 21-avgustdagi "Asosiy dori vositalari ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 34-sonli buyrug'i ilovasi bilan tasdiqlangan "Asosiy dori vositalari ro'yxatiga"ga muvofiq, podagra kasalligiga qarshi vositalari qatoriga faqatgina xalqaro patentlanmagan "Allopurinol" (100 mg; 150 mg; 200 mg; 300 mg dozali) tabletkalari kiritilgan.

Shuningdek, Sog'liqni saqlash vazirining 2023-yil 13-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobidan qoplanadigan, tuman (shahar) darajasida ambulator va statsionar sharoitda ko'rsatiladigan tibbiy yordamning kafolatlangan hajmlari ro'yxatini tasdiqlash haqida"gi 41-sonli buyrug'i (*Adliya vazirligidan 17.10.2023 yilda 3465-son bilan ro'yxatga olingan*) bilan tasdiqlangan, "O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobidan qoplanadigan, tuman (shahar) darajasida ambulator va statsionar sharoitda ko'rsatiladigan tibbiy yordamning kafolatlangan hajmlari ro'yxati"ning II bo'lim, 3-bobida Ko'p tarmoqli markaziy poliklinikalarda

ko'rsatiladigan tibbiy yordamning kafolatlangan hajmlariga kiritilgan tashxislar ro'yxati keltirilgan. Mazkur ro'yxatning "108-Revmatologiya" deb nomlangan qatorida, tibbiyot xodimlari bemorlarni tashxislashda qo'llaydigan XTK 10 (Xalqaro kasalliklar tasnifi) bo'yicha podagra kasalligi maxsus M10-M10.9 kodi bilan belgilanishi nazarda tutilgan.

Bundan tashqari, ushbu buyruqga asosan, "Allopurinol" tabletkasi podagra kasalligi bilan og'rigan bemorlarga ko'p tarmoqli markaziy poliklinika formulyariga kiritilgan dori vositalari ro'yxatiga ham kiritilgan. Shifokorlarning tavsiyasiga ko'ra, podagra kasalligi bilan og'rigan bemor bolalarga hayvon oqsili o'rnini bosuvchi mahsulotlar belgilanishi, ayniqsa soya o'simligi oqsili alohida tavsiya etilishi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirining 2025-yil 9-iyundagi "Davlat budjeti mablag'lari hisobidan imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslar davolanadigan kasalliklar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 7-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan Davlat budjeti mablag'lari hisobidan imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslar davolanadigan kasalliklarning alohida ro'yxati tasdiqlangan. Unga ko'ra, podagra kasalligi revmatologiya yo'nalishiga oid kasalliklar qatoriga kiritilib, ushbu toifadagi bemorlarni og'irlik darajasiga ko'ra, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar tibbiyot muassasalarida (A), Respublika darajasida (B), Davlat tibbiyot oliy ta'lim tashkilotlari klinikalarida (C) davolanishi mumkinligi belgilangan. Bunday bemorlarning yo'llanmasi



(gospitalizatsiyasi) uchun asos sifatida, XTK-10 tasnifi bo'yicha "Idiopatik podagra 0.1" va "buyrak faoliyati buzilishi bilan kechadigan podagra 0.2" kabi tashxislar qo'yilganda, yuqoridagi tibbiyot muassasalarida davolanishi mumkinligi qayd etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirining 2025-yil 21-oktyabrdagi "Dori vositalarining asosiy farmakologik ko'rsatkichlarini o'z ichiga oluvchi klassifikatorlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 12-son buyrug'i bilan dori vositalarining asosiy farmakologik ko'rsatkichlarini o'z ichiga oluvchi alohida klassifikatorlar ham tasdiqlangan. Unga ko'ra, podagra kasalligini davolash uchun ishlatiladigan xalqaro patentlanmagan nomdagi 11 turdagi (*Allopurinol, Tizopurin, Febuksostat, Allopurinol boshqa vositalar bilan majmuada, Probenetsid, Sulfinpirazon, Benzbromaron,*

Izobromindion, Kolxitsin, Sinxofen, Uratoksidaza) dori vositalari keltirilgan.

Podagra kasalligi bilan kasallanish butun dunyoda yildan yilga oshib bormoqda, ushbu kasallikni farmakoepidemiologik holatini O'zbekiston Respublikasida va uning ma'muriy hududlarida tarqalishi darajasini o'rganish tadqiqotlarimizning asosiy maqsadini tashkil qildi. Quyidagi 1-jadvalda O'zbekiston Respublikasi bo'yicha podagra kasalligi bilan kasallanish ko'rsatkichi, Jami ro'yxatga olingan bemorlar soni, kishi, mutlaq ko'rsatkichlarda ma'lumotlar tahlili keltirildi.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha podagra kasalligi bilan kasallanish ko'rsatkichi, (Jami ro'yxatga olingan bemorlar soni, kishi, mutlaq ko'rsatkichlarda)

Ma'muriy hududlar	Yillar								
	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
O'zbekiston Respublikasi	2 685	3 763	4 687	4 825	4 325	4 459	3 847	3 584	4 226
Qoraqalpog'iston Respublikasi	-	23	11	14	14	16	17	26	9
Andijon	425	373	358	400	348	335	355	412	532
Buxoro	22	24	89	260	194	119	83	75	90
Jizzax	190	178	219	193	207	286	180	179	232
Qashqadaryo	308	321	240	284	258	269	232	173	80
Navoiy	9	10	6	33	49	35	21	28	35
Namangan	58	87	89	88	116	116	116	113	124
Samarqand	647	514	750	631	441	396	475	505	444
Surxondaryo	-	746	952	955	779	510	770	397	381
Sirdaryo	311	316	375	395	349	455	239	246	94
Toshkent	248	276	653	692	764	648	581	632	768
Farg'ona	-	317	282	213	217	655	153	58	97
Xorazm	121	154	166	179	190	186	187	186	224
Toshkent sh.	346	424	497	488	399	435	438	554	1 116



Mazkur 1-jadvalda O'zbekiston Respublikasida 2016–2024 yillar davomida podagra kasalligi bilan ro'yxatga olingan bemorlar sonining dinamikasini aks ettiradi. Tahlil natijalari kasallik ko'rsatkichlarining yillar davomida sezilarli o'zgarib borganligini ko'rsatadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2016-yilda 2 685 nafar bemor ro'yxatga olingan bo'lsa, 2018-yilda bu ko'rsatkich 4 687 nafarga yetib, keskin o'sish kuzatilgan. Keyingi yillarda kasallik ko'rsatkichlari nisbatan barqarorlashgan bo'lib, 2019-yilda 4 825 nafar bemor qayd etilgan.

2020–2023 yillarda ko'rsatkichlar ma'lum darajada pasayish tendensiyasini ko'rsatadi: 2020-yil - 4 325 nafar, 2021-yil - 4 459 nafar, 2022-yil - 3 847 nafar, 2023-yil - 3 584 nafar, 2024-yilda esa yana o'sish kuzatilib, 4 226 nafar bemor ro'yxatga olingan. Umuman olganda, 2016–2019 yillarda kasallik ko'rsatkichlarining o'sishi, 2020–2023 yillarda esa nisbiy pasayish va 2024-yilda yana ko'tarilish tendensiyasi kuzatiladi.

Hududlar kesimida podagra kasalligining tarqalishi bir xil emasligi

kuzatiladi. Eng yuqori ko'rsatkichlar Toshkent shahri - 2024-yilda 1116 nafar bemor (eng yuqori ko'rsatkich), Toshkent viloyati -2019–2024 yillarda barqaror yuqori ko'rsatkichlar (648–768 oralig'ida), Samarqand viloyati - ayrim yillarda 750 nafargacha, Surxondaryo viloyati - 2018–2019 yillarda 950 nafardan ortiqni tashkil qilgan. Mazkur hududlarda kasallikning yuqori darajada qayd etilishi aholi zichligi, urbanizatsiya darajasi, turmush tarzi va metabolik kasalliklar tarqalishi bilan izohlanishi mumkin.

Tadqiqotning keyingi bosqichida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha podagra kasalligi bilan kasallanish ko'rsatkichi har 100 000 aholiga jami ro'yxatga olingan bemorlar soni, kishi boshiga tahlil qilindi. Quyidagi 2-jadvalda tahlil natijalari keltirilgan.

2-jadval

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha podagra kasalligi bilan kasallanish ko'rsatkichi, (Jami ro'yxatga olingan bemorlar soni, kishi, har 100 000 aholiga)

Ma'muriy hududlar	Yillar								
	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
O'zbekiston Respublikasi	8,4	11,6	14,2	14,5	12,8	12,9	10,8	9,8	11,4
Qoraqalpog'iston Respublikasi	-	1,3	0,6	0,7	0,7	0,8	0,9	1,3	0,4
Andijon	14,5	12,5	11,8	13,0	11,1	10,5	10,8	12,3	15,5
Buxoro	1,2	1,3	4,7	13,7	10,1	6,1	4,2	3,7	4,4
Jizzax	14,7	13,6	16,4	14,3	15,0	20,3	12,3	12,0	15,2
Qashqadaryo	10,1	10,3	7,5	8,8	7,9	8,1	6,7	4,9	2,2
Navoiy	1,0	1,1	0,6	3,4	4,9	3,5	2,0	2,6	3,2
Namangan	2,2	3,3	3,3	3,2	4,1	4,0	3,9	3,7	4,0
Samarqand	17,9	13,9	19,9	16,6	11,4	10,0	11,7	12,1	10,4
Surxondaryo	-	30,0	37,4	37,2	29,6	19,0	27,7	14,0	13,1



Sirdaryo	39,0	39,0	45,6	47,6	41,2	52,9	26,9	27,2	10,2
Toshkent	8,8	9,7	22,7	23,9	26,0	21,8	19,6	20,9	24,9
Farg'ona	-	8,8	7,7	5,8	5,8	17,1	3,9	1,4	2,4
Xorazm	6,9	8,6	9,1	9,8	10,2	9,8	9,6	9,4	11,1
Toshkent sh.	14,4	17,3	20,0	19,4	15,5	16,1	15,1	18,5	36,3

O'zbekiston Respublikasida 2016-yilda podagra bilan jami ro'yxatga olingan bemorlar soni, kishi, har 100 000 aholiga nisbatan 8,4 nafar, 2024 yilga kelib 11,4 nafar bemorlar ro'yxatga olinganligi aniqlandi.

Tadqiqotlarimizning keyingi bosqichida podagra kasalligi bilan ro'yxatga olingan bemorlarni yoshi va ma'muriy hududlarda tarqalishi ko'rsatkichi tahlil qilindi. Dastlab 14 yoshgacha bolalar orasida podagra kasalligining epidemiologik ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Quyidagi 3-jadval **2016–2024 yillarda O'zbekiston Respublikasida podagra kasalligi bolalar (14 yoshgacha) orasida ro'yxatga olingan mutlaq ko'rsatkichlarda holatlarining hududlar kesimidagi dinamikasini** aks ettiradi. Hududlar kesimida podagra kasalligi o'smirlar orasida juda kam qayd etilgan bo'lib, ko'plab viloyatlarda ayrim yillarda umuman aniqlanmagan. Buxoro

viloyati - 2016-yilda 15 ta, 2017-yilda 4 ta holat qayd etilgan. Qashqadaryo viloyati - 2016–2022 yillar oralig'ida 3-7 ta holat qayd etilgan. Andijon viloyati - 2020–2022 yillarda 1 tadan holat aniqlangan. Sirdaryo viloyati - 2021-yilda 3 ta holat. Farg'ona viloyati - 2022-yilda 5 ta holat. Navoiy viloyati -2023-yilda 4 ta holat. Samarqand viloyati - 2023-yilda 22 ta holat. Surxondaryo viloyati - 2024-yilda 14 ta holatlar qayd etilgan. Ko'rinib turibdiki, ayrim hududlarda kasallikning alohida yillarda keskin ko'payishi kuzatiladi. Masalan, 2023-yilda Samarqand viloyatida 22 ta holat qayd etilgan bo'lib, bu respublika bo'yicha eng yuqori hududiy ko'rsatkich hisoblanadi.

3-jadval

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha podagra kasalligi bilan kasallanish ko'rsatkichi (Jami ro'yxatga olingan bolalar (14 yoshgacha), kishi, mutlaq ko'rsatkichlarda)

Ma'muriy hududlar	Yillar								
	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
O'zbekiston Respublikasi	22	21	3	8	7	10	11	26	14
Qoraqalpog'iston Respublikasi	-	12	-	-	-	-	-	-	-
Andijon	-	-	-	-	1	1	1	-	-
Buxoro	15	4	-	2	-	-	-	-	-
Jizzax	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Qashqadaryo	7	5	3	6	6	3	5	-	-
Navoiy	-	-	-	-	-	-	-	4	-
Namangan	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Samarqand	-	-	-	-	-	-	-	22	-
Surxondaryo	-	-	-	-	-	-	-	-	14



Sirdaryo	-	-	-	-	-	3	-	-	-
Toshkent	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Farg'ona	-	-	-	-	-	-	5	-	-
Xorazm	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Toshkent sh.	-	-	-	-	-	3	-	-	-

Quyidagi 4-jadval 2016–2024 yillarda O'zbekiston Respublikasida podagra kasalligi bolalar (14 yoshgacha) orasida ro'yxatga olingan har 100 000 aholiga holatlarining hududlar kesimidagi dinamikasini aks ettiradi.

4-jadval
O'zbekiston Respublikasi bo'yicha podagra kasalligi bilan kasallanish ko'rsatkichi (Jami ro'yxatga olingan bolalar (14 yoshgacha), kishi, har 100 000 aholiga)

Ma'muriy hududlar	Yillar								
	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
O'zbekiston Respublikasi	0,2	0,2	0,0	0,1	0,1	0,1	0,1	0,2	0,1
Qoraqalpog'iston Respublikasi	-	2,2	-	-	-	-	-	-	-
Andijon	-	-	-	-	0,1	0,1	0,1	-	-
Buxoro	3,1	0,8	-	0,4	-	-	-	-	-
Jizzax	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Qashqadaryo	0,8	0,5	0,3	0,6	0,6	0,3	0,5	-	-
Navoiy	-	-	-	-	-	-	-	1,3	-
Namangan	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Samarqand	-	-	-	-	-	-	-	1,7	-
Surxondaryo	-	-	-	-	-	-	-	-	1,4
Sirdaryo	-	-	-	-	-	1,2	-	-	-
Toshkent	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Farg'ona	-	-	-	-	-	-	0,4	-	-
Xorazm	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Toshkent sh.	-	-	-	-	-	0,4	-	-	-

Epidemiologik tahlilning keyingi bosqichida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha podagra kasalligi bilan kasallanish ko'rsatkichi jami ro'yxatga olingan o'smirlar (15 - 17 yosh), kishi, mutlaq ko'rsatkichlardagi ma'lumotlari keltirildi. 5- jadvalda respublika miqyosida 2016 yilda 6 nafar bemor

ro'yxatga olingan bo'lsa, 2024 yilga kelib, 20 nafarga yetganligi aniqlandi.

5-jadval
O'zbekiston Respublikasi bo'yicha podagra kasalligi bilan kasallanish ko'rsatkichi (Jami ro'yxatga olingan o'smirlar (15 - 17 yosh), kishi, mutlaq ko'rsatkichlarda)



Ma'muriy hududlar	Yillar								
	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
O'zbekiston Respublikasi	6	3	32	39	41	15	19	2	20
Qoraqalpog'iston Respublikasi	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Andijon	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Buxoro	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Jizzax	-	-	16	16	16	-	-	-	-
Qashqadaryo	5	2	8	9	10	5	8	-	-
Navoiy	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Namangan	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Samarqand	-	-	-	7	4	2	1	1	-
Surxondaryo	-	-	-	-	-	-	-	-	16
Sirdaryo	-	-	-	-	-	1	1	-	-
Toshkent	-	-	7	7	11	7	7	1	-
Farg'ona	-	-	-	-	-	-	2	-	4
Xorazm	1	1	1	-	-	-	-	-	-
Toshkent sh.	-	-	-	-	-	-	-	-	-

O'zbekiston Respublikasida 2016–2024 yillar davomida 15–17 yoshdagi o'smirlar orasida podagra kasalligining tarqalish ko'rsatkichlari (har 100 000 aholiga nisbatan) hududlar kesimida 6-jadvalda keltirilgan. Mazkur ko'rsatkichlar kasallikning yosh guruhlaridagi epidemiologik xususiyatlarini baholash imkonini beradi. Tahlil natijalariga ko'ra, o'smirlar orasida podagra kasalligi bilan kasallanish darajasi juda past bo'lib, ko'rsatkichlar yillar davomida 0,1–2,6 holat 100 000 aholi oralig'ida o'zgarib turgan. 2016-yilda respublika bo'yicha kasallanish ko'rsatkichi 0,4 ni tashkil etgan bo'lsa, 2017-yilda u 0,2 gacha pasaygan. 2018–2020 yillarda esa

ko'rsatkichlarning nisbiy o'sishi kuzatilib, 2019 va 2020 yillarda 2,6 holat/100 000 aholi darajasiga yetgan. Keyingi yillarda kasallanish darajasi yana pasayib, 2023-yilda 0,1 ni tashkil etgan. 2024-yilda esa ko'rsatkich 1,1 gacha oshgan. Umuman olganda, o'smirlar orasida podagra kasalligi epizodik va kam uchraydigan kasallik sifatida namoyon bo'lib, uning ko'rsatkichlari barqaror epidemiologik o'sish tendensiyasini ko'rsatmaydi.

6-jadval

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha podagra kasalligi bilan kasallanish ko'rsatkichi (Jami ro'yxatga olingan o'smirlar (15 - 17 yosh), kishi, har 100 000 aholiga)

Ma'muriy hududlar	Yillar								
	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
O'zbekiston Respublikasi	0,4	0,2	2,1	2,6	2,6	1,0	1,2	0,1	1,1
Qoraqalpog'iston Respublikasi	-	-	-	-	-	-	-	-	-



Andijon	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Buxoro	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Jizzax	-	-	23,4	23,6	23,5	-	-	-	-
Qashqadaryo	3,0	1,2	5,0	5,6	6,3	3,2	5,0	-	-
Navoiy	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Namangan	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Samarqand	-	-	-	3,8	2,2	1,1	0,5	0,5	-
Surxondaryo	-	-	-	-	-	-	-	-	11,1
Sirdaryo	-	-	-	-	-	2,5	2,3	-	-
Toshkent	-	-	5,6	5,6	8,5	5,4	5,2	0,7	-
Farg'ona	-	-	-	-	-	-	1,1	-	2,0
Xorazm	1,1	1,1	1,1	-	-	-	-	-	-
Toshkent sh.	-	-	-	-	-	-	-	-	-

Podagra kasalligi asosan katta yoshdagi aholi orasida uchraydigan metabolik kasallik hisoblanadi. O'smirlar orasida ushbu kasallikning kam uchrashi quyidagi omillar bilan izohlanadi: organizm metabolizmining yoshga bog'liq xususiyatlari, purin almashinuvi buzilishlarining kamligi, surunkali metabolik kasalliklarning kam uchrashi. Ayrim hududlarda kuzatilgan alohida

holatlar esa irsiy metabolik buzilishlar yoki diagnostika natijasida aniqlangan individual klinik holatlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

7-jadval

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha podagra kasalligi bilan kasallanish ko'rsatkichi (Jami ro'yxatga olingan kattalar, kishi, mutlaq ko'rsatkichlarda)

Ma'muriy hududlar	Yillar								
	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
O'zbekiston Respublikasi	2 657	3 739	4 652	4 778	4 277	4 434	3 817	3 556	4 192
Qoraqalpog'iston Respublikasi	-	11	11	14	14	16	17	26	9
Andijon	425	373	358	400	347	334	354	412	532
Buxoro	7	20	89	258	194	119	83	75	90
Jizzax	190	178	203	177	191	286	180	179	232
Qashqadaryo	296	314	229	269	242	261	219	173	80
Navoiy	9	10	6	33	49	35	21	24	35
Namangan	58	87	89	88	116	116	116	113	124
Samarqand	647	514	750	624	437	394	474	482	444
Surxondaryo	-	746	952	955	779	510	770	397	351
Sirdaryo	311	316	375	395	349	451	238	246	94
Toshkent	248	276	646	685	753	641	574	631	768
Farg'ona	-	317	282	213	217	655	146	58	93
Xorazm	120	153	165	179	190	186	187	186	224
Toshkent sh.	346	424	497	488	399	432	438	554	1 116



O'zbekiston Respublikasida podagra kasalligining kattalar orasida 2016–2024 yillardagi tarqalishi 7- va 8-jadvallarda keltirilgan. Jadval ma'lumotlariga ko'ra, respublikada podagra kasalligi bilan ro'yxatga olingan kattalar soni tahlil qilinayotgan davrda o'zgaruvchan dinamikaga ega bo'lgan. 2016-yilda 2 657 nafar bemor qayd etilgan bo'lsa,

2018–2019 yillarda kasallik ko'rsatkichlarining sezilarli darajada oshishi kuzatilgan va 2019-yilda 4 778 nafar bemor qayd etilgan.

8-jadval

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha podagra kasalligi bilan kasallanish ko'rsatkichi (Jami ro'yxatga olingan kattalar, kishi, har 100 000 aholiga)

Ma'muriy hududlar	Yillar								
	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
O'zbekiston Respublikasi	12,5	17,3	21,2	21,6	19,0	19,4	16,4	15,0	17,4
Qoraqalpog'iston Respublikasi	-	0,9	0,9	1,1	1,1	1,3	1,3	2,0	0,7
Andijon	21,6	18,7	17,7	19,6	16,8	15,9	16,6	19,0	24,2
Buxoro	0,6	1,6	6,9	19,9	14,7	8,9	6,1	5,5	6,5
Jizzax	22,8	20,9	23,4	20,2	21,3	31,4	19,3	18,9	24,1
Qashqadaryo	15,1	15,7	11,2	13,0	11,5	12,3	10,1	7,8	3,6
Navoiy	1,4	1,5	0,9	5,0	7,3	5,1	3,0	3,4	4,9
Namangan	3,3	4,9	4,9	4,8	6,2	6,2	6,0	5,8	6,3
Samarqand	27,5	21,5	30,8	25,4	17,5	15,5	18,3	18,3	16,6
Surxondaryo	-	46,7	58,4	58,0	46,5	30,0	44,3	22,5	19,6
Sirdaryo	59,3	59,2	69,0	72,0	62,6	79,5	41,1	41,8	15,7
Toshkent	12,9	14,1	32,7	34,5	37,4	31,6	28,7	31,1	37,3
Farg'ona	-	13,0	11,4	8,6	8,6	25,6	5,6	2,2	3,5
Xorazm	10,4	13,0	13,7	14,8	15,4	14,9	14,6	14,3	17,0
Toshkent sh.	20,0	24,2	27,9	27,3	21,9	22,8	21,6	26,6	52,4

8-jadvaldagi nisbiy ko'rsatkichlar ham shunga o'xshash tendensiyani tasdiqlaydi. Jumladan, 2016-yilda kasallanish ko'rsatkichi 12,5 holat / 100 000 aholini tashkil etgan bo'lsa, 2018–2019 yillarda 21,2–21,6 holat / 100 000 aholi darajasiga yetgan. 2022–2023 yillarda bu ko'rsatkich 15,0–16,4 gacha kamaygan, 2024-yilda esa yana 17,4 holat / 100 000 aholiga oshgan. Bu holat podagra kasalligining respublika miqyosida o'zgaruvchan epidemiologik dinamikaga ega ekanligini ko'rsatadi.

Xulosa. O'zbekiston Respublikasida 2016–2024 yillar davomida podagra

kasalligi farmakoepidemiologik jihatdan o'zgaruvchan dinamikaga ega bo'lib, umumiy hisobda kasallanish darajasining ortish tendensiyasi saqlanib qolmoqda. Kasallikning asosiy yuklamasi kattalar aholiga to'g'ri keladi, bolalar va o'smirlar orasida esa kam uchraydi. Hududlar kesimida sezilarli tafovutlar mavjud bo'lib, bu ijtimoiy-iqtisodiy omillar, turmush tarzi va diagnostika darajasi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Kelgusida podagra kasalligini erta aniqlash, profilaktika choralarini kuchaytirish va xavf guruhlarini monitoring qilish orqali kasallik yukini



kamaytirish maqsadga muvofiqdir.
Podagra kasalligini erta aniqlash va
profilaktika qilish maqsadida hududiy
epidemiologik monitoring tizimini

takomillashtirish hamda aholi o'rtasida
sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish
muhim ahamiyatga ega.

References:

1. Dehlin M., Jacobsson L., Roddy E. Global epidemiology of gout: prevalence, incidence, treatment patterns and risk factors // Nature Reviews Rheumatology. – 2020. – Vol. 16. – № 7. – P. 380–390.
2. Kuo C. F. et al. Global epidemiology of gout: prevalence, incidence and risk factors // Nature Reviews Rheumatology. – 2015. – Vol. 11. – № 11. – P. 649–662.
3. Fenando A. et al. Gout // StatPearls [Internet]. – Treasure Island (FL): StatPearls Publishing, 2024. – URL: <https://www.ncbi.nlm.nih.gov/books/NBK546606/> (дата обращения: 07.05.2026).
4. Белоусов Д. Ю., Чеберда А. Е. Фармакоэпидемиологические исследования: методология и регулирование // Качественная клиническая практика. – 2017. – № 1. – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/farmakoepidemiologicheskie-issledovaniya-metodologiya-i-regulirovanie>
5. Tairova S.F., Rajabova N.X. Podagra tashxisi qo'yilgan statsionar bemorlarning tibbiy kartalarini retrospektiv tahlili // Zamonaviy farmatsiya: tadqiqot, amaliyot va natijalar mavzusidagi I Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Toshkent, 2025. – B. 248-250.
6. Tairova S.F., Rajabova N.X. Podagra va boshqa revmatik kasalliklarni farqlash diagnostikasi // Biofizika va biokimyo muammolari – 2025 ilmiy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2025. – B. 164-165.
7. Tairova S.F., Rajabova N.X. Podagra kasalligi va uni davolash strategiyalari // Abu Ali ibn Sino va zamonaviy farmatsevtikada innovatsiyalar VIII xalqaro ilmiy-amaliy anjuman maqolalar to'plami. – Toshkent, 2025. – B. 338-339.
8. Tairova S.F., Rajabova N.X. Podagra kasalligini davolashda qo'llaniladigan dori vositalari assortimenti tahlili // Dostijeniya fundamentalnoy, prikladnoy meditsiny i farmatsii: materialy 79-y Mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferensii. – Samarqand, 2025. – S. 375-376.
9. Таирова С.Ф. Подагра касаллигининг турлари ва эпидемиологиясини ўрганиш // Образование, наука и инновационные идеи в мире // Научный журнал. – 2025. – Выпуск №62, Часть-1. – С. 46–51.
10. Таирова С.Ф. Подагра касаллигининг турлари ва сабаблари // Образование, наука и инновационные идеи в мире // Научный журнал. – 2025. – Выпуск №62, Часть-1. – 2025. – С. 82–87.
11. Рихсиева О. Г., Ражабова Н. Х. Методологические подходы к проведению маркетинговых исследований фармацевтического рынка противоопухолевых препаратов в Узбекистане // European Journal of Modern Medicine and Practice (EJMNS). – 2025. – № 7. – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/metodologicheskie->



podhody-k-provedeniyu-marketingovyh-issledovaniy-farmatsevticheskogo-rynka-
protivoopuholevyh-preparatov-v

12. Tillyashaykhov N., Rajabova N. Kh., Suyunov N. D., Djanklich S. M. Эпидемиология
и прогноз заболеваемости онкологическими болезнями, раком легкого и бронхов
// Вестник ВГМУ. – 2024. – № 3. – URL:
[https://cyberleninka.ru/article/n/epidemiologiya-i-prognoz-zabolevaemosti-
onkologicheskimi-boleznyami-rakom-legkogo-i-bronhov](https://cyberleninka.ru/article/n/epidemiologiya-i-prognoz-zabolevaemosti-onkologicheskimi-boleznyami-rakom-legkogo-i-bronhov)